

O'ZBEK KARIKATURA DARG'ASI

**Akrom Bahromov**

Katta o'qituvchi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

Rassomchilik va dizayn instituti

Tasviriy san'at fakulteti

Miniaturyura va kitob grafikasi kafedrası

baxramovakram1955@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18784627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hajviy rasmlari bilan O'zbekistondan ko'ra chet ellarda juda yaxshi tanilgan rassom Mahmudjon Eshonqulov haqida, uni ijodiy yutuqlari sirlari haqida gap boradi. Muallif shu sohada ijod qilgan rassom sifatida hamkasbini ijodini tahlil qiladi. Keng ommani bu rassom ijodi bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: Satira, yumor, karikatura, sharj, rassom, tanlov, ijod, hajviy rasm, festival, xalqaro, hakamlar hay'ati a'zosi, global mavzular.

Аннотация. В этой статье речь пойдёт о художнике Махмуджоне Эшонкулове, более известном за рубежом, чем в Узбекистане, своими карикатурами, и о секретах его творческого успеха. Автор, как художник, работавший в этой области, анализирует творчество своего коллеги. Цель – познакомить широкую публику с творчеством этого художника.

Ключевые слова: Сатира, юмор, карикатура, художник, конкурс, творчество, комиксы, фестиваль, международный, член жюри, глобальные темы.

Abstract. This article discusses the work of Mahmudjon Eshonqulov, a cartoonist whose satirical drawings are well known both in Uzbekistan and abroad. It examines the main features of his creative style and the factors behind his artistic achievements. As an artist working in the same field, the author analyzes Eshonqulov's work and aims to introduce a wider audience to his creative activity.

Keywords: Satire, humor, caricature, cartoon, artist, creativity, satirical drawing, international, global themes.

Taniqli karikaturist Mahmudjon Eshonqulov 1958 yilning, 21 yanvarida so'lim Farg'ona go'shasining Beshariq tumani, Telov qishlog'ida dunyoga keldi. 1994 yilda Toshkent Pedagogika universitetida Badiiy grafika bo'limida oliy ta'lim oladi. 1996-1997 yillarda «Mushtum» jurnalida rassom bo'lib ishlagandan bilinadiki u o'z ijod yo'lini o'shandayoq to'g'ri tanlagan. Ancha yillar poytaxtda yashab, qaynoq ijodiy muhitda shijoat bilan ijod qildi. Ayni paytda o'z qadrdon qishlog'ida yashab ijodini juda sermahsul davom ettirmoqda. Yaxshi bir oilani sohibi, 4 ta farzandni otasidir. "Mushtum" xajviy jurnalida 1991 yili, uni dastlabki karikaturasi bosilib chiqadi. 1997 yili Turkiya xalqaro karikatura tanlovida sovrindor bo'ldi. Iqtidorli karikaturachini yutuqlarini hisobga olib, davlatimiz 2008 yili Mahmudjonni "Do'stlik" ordeni bilan munosib taqdirladi.



"Karikatura san'atining 100 ta buyuk ustasi" nominatsiyasiga kirgan rassom

O'zbekiston Badiiy Ijodkorlar Uyushmasi, Xalqaro Hajvchi Rassomlar Ittifoqi (UWC) a'zosi hamda UWC ning O'zbekistondan vakili hamdir. Yurtimizda va chet ellarda uni yigirmadan ko'p shaxsiy hajviy ko'rgazmalari bo'lib o'tgan. Mahmudjonni ijod namunalari juda ko'p xorijiy ellarning Yumor va Karikatura muzeylaridan o'rin olgan. Mahmudjon mingtadan ko'p mahalliy va chet el hajv ko'rgazmalarida qatnashib, 350 dan ortiq tanlovlarning g'olibi bo'lgan. AQSh, Eron, Turkiya, Serbiya, Bolgariya, Polsha, Isroil Argentina, Nepal, va boshqa chet ellarda tanlov g'olibi bo'lishga muvassar bo'lgan. Bir qator xalqaro karikatura tanlovlarida, masalan 2014 yili Isroilda, 2020 yili Malayziyada, 2024 yili Makedoniyada va 2024 yili Turkiyada hajv tanlovlarida faxriy hakamlar a'zosi sifatida qatnashish martabasiga sazovor bo'lgan.

Dunyo miqyosidagi ijodiy bahslarda ishtirok etish Mahmudjonni ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatib uni uslub va tematikasini boyitdi. Bu oddiy maishiy temalardan, engil kulgilardan katta jiddiy temalargacha hajviy asarlar dunyoga kelishiga sababchi bo'ldi. Rasmlar sodda, xazil ko'rinishida ko'ringani bilan uni zamirida katta bir ijtimoiy muammo borligini sezasiz.

Dunyo karikatura san'atida yaxshi an'ana bor. Bu butun dunyoda ko'plab tanlovlar o'tkazilishidir. Mahmudjon bu tanlovlarni ko'pida qatnashadi. Bundan tajribasi ortib, ijodiy bisoti ko'payib boradi. Yaxshi ishlari albatta taqdirlanib, muallif tan olinib va hatto xakamlik qilishga taklif qilinmoqda. Chet ellarda tanlovda qatnashganlarga g'olib bo'lganlarni va boshqa rassomlarni karikaturalar katalogini tekinga yuborilar ekan. Bu katta tajriba almashish maktabi va ma'lumot olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Poytaxtda har 1 aprel "xalqaro xazil kuni" munosabati bilan an'anaviy hazil-yumor ko'rgazmasi bo'lib o'tadi. Mahmudjon bu tadbirda ba'zan jamoa bilan ba'zan shaxsiy ko'rgazmasi bilan qatnashadi.

O'zbekistonda ko'pincha tanqid, hajv, karikatura, ijtimoiy plakat negadir juda negativ qabul qilinadi, garchi u ob'ektiv bo'lsa ham. Tanqidga toqatsizlik bor. Muammoni to'g'rilash o'rniga yashirish, haspo'shlash kuchli. Demokratik printsiplardan biri jamiyatdagi nuqsonlarni ochiq gapira olish va uni bartaraf qilish asli. O'zbekistonda ham horijdagidek «muhit» yaratilsa, xalqaro tanlovlar o'tkazilsa, «Mushtum»ga o'xshash hajviy nashrlar ko'paysa, bu san'at turi ham beqiyos rivojlanardi degan umiddamiz.

Jamiyatni ma'naviy va madaniy yuksalishi uchun faol harakat qilish vaqti keldi. Byurokratiya, poraxo'rlik, lavozimini suiste'mol qilish, nepotizm, tekinxo'rlik, manfaatparastlik, xalq murojatlariga beparvolik, loqaydlik, kibru-havo kabi illatlardan tezroq forih bo'lish jamiyatni yanada nurli kelajakka etaklagan bo'lardi.

Hajvchi rassomni xususiyati boshqalarga qaraganda hayotdagi kulgili va xajviy lahzalarni ko'ra olishidir. Mahmudjon Eshonqulov karikaturalari qoq mo'ljalga, «o'ntalik»ka uradigan qisqa va lo'nda tasvirlardir. Ijodiy topilmalari o'ziga xos, qaytarilmas. Bir qaraganda hammaga ma'lum narsalar boshqacha ko'rinishda, kutilmagan tarzda namoyon bo'ladi. Dunyodagi so'ngi shiddatli geosiyosiy voqealarni Mahmudjon ham befarq kuzatmasdan, o'z ijodi bilan munosabat bildirib kelmoqda. O'tkir hajv bilan global muammolarni qalamga olmoqda. Nainki o'zimizda, butun dunyoda ham Mahmudjonni rasmlari tezda iliq qabul qilinmoqda, chunki astoydil dildan chiqsa, dilga etib boradi degan gap bor.


Mahmudjonni ijodini muxim xususiyati uni o'z kasbiga muhabbati bo'lsa, yana biri aniq fuqarolik pozitsiyasi, keng dunyoqarashi, ijodiy dovyurakligidir. Inson sifatidagi pozitsiyasi uni atrof tevarigidagi tashvishli voqealarga befarq bo'lmashlikka, san'at vositasi bilan bo'lsa ham illatlarga qarshi kurashishga chorlaydi. Jamiyatni yaxshilanishga, poklanishiga harakat qiladi.



Hajviy grafikada satira, yumor va sharj yo'nalishlari bo'lib ularni ma'lum farqlari bor. Satira jiddiyroq mavzu bo'lib biron konkret odamga yo odamlarga yoki voqealarga qaratilgan hajviy rasm bo'ladi. Uni tagida bir muammo bo'lishi mumkin. Yumor bu aniq bir odamga qaratilmagan, engil kulgi, "hazil". Ko'proq kayfiyatni ko'taradi. Sharj bu aniq bir odamni yo odamlarni kulgili tasvirlashdir. Plakatda ham hajviy asarda ham rassom "tesha tegmagan" bir topilma topish talab etiladi. Ijodning eng qiyin va eng lazzatli joyi ham shu bo'lsa kerak. Mahmudjondagi ziyraklik hayotni kuzatishga, topilmalar topishga, rassomlik qobiliyati esa uni tasvirlay olishga imkon beradi. Bular rassom yutuqlarini taminlovchi omillar desak adashmaymiz.

Keyingi paytlarda zamonaviy komp'yuter dasturlari ham tasviriy san'atga bir vosita sifatida kirib kelmoqda. Mahmudjon ham ularni o'zlashtirib ijodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar yordamida butun dunyo bilan, chet ellik hamkasblari bilan doimiy aloqada desak mubolag'a bo'lmaydi. Hammaga ayonki, Farg'ona xalqi juda kulgusevar, qiziqchilikka moyil xalq. Bu hazilkashlik va yumorsevarlik Mahmudjonga ham yaxshigina o'tgani seziladi. Bu yil Mahmudjon Eshonqulov 68 yoshni qarshiladi. Biz Mahmudjonga sog'liq-salomatlik, ijodiga baraka tilab, do'stimiz dunyoni kuldirib yura bersin deymiz.

Akrom Bahromov

6.02.2026





ADABIYOTLAR

1. Shavkat Muzaffar. O'zbek rassomi – dunyoning eng zo'rlari qatorida. Madaniyat. 2020.
2. Soburov. Zamonaviy san'atda satira va vizual madaniyat. Moskva.
3. Isskustvo, 2015.
4. P. Smit. Vizual kommunikatsiya va ijtimoiy tanqid. London: Routledge, 2018.
5. O'zbekiston Rassomlar uyushmasi. O'zbekiston zamonaviy grafika san'ati. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
6. MA'RIFAT gazetasi. 04.06.2024 / 839. Nazokat Zaylobova.
7. XALQ SO'ZI gazetasi. Online. 24.04.2018. Kuydiradi, kuldiradi...